

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARIDA KASBIY VAZIFAGA MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kushakova Caros Saidumarovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-kurs magistranti

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish va zamon talablari asosida rivojlantirish masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, maktabgacha ta'lim sohasi bugungi kunda inson kapitalini shakllantirishning muhim bosqichi sifatida e'tirof etilmoqda. Zero, ta'lim-tarbiyaning ilk bosqichida bolaning intellektual, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishi keyingi ta'lim pog'onalaridagi muvaffaqiyatli faoliyatining poydevorini tashkil etadi. Shu boisdan ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, tarbiyachilar mehnatini rag'batlantirish va ularning kasbiy mas'uliyatini oshirish masalalari davlat miqyosida dolzarb vazifa qilib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr) va "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni (2019-yil 16-dekabr), shuningdek, Prezidentning 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3305-son qarori hamda 2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi sohada olib borilayotgan islohotlarning huquqiy asosini belgilab berdi. Ushbu hujjatlarda tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirish, ularning mehnat faoliyatiga ijtimoiy va psixologik yondashuvni kuchaytirish, shuningdek, bolalarni tarbiyalash jarayonida zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlardan foydalanish alohida ta'kidlangan.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining o'z kasbiy vazifalariga bo'lgan munosabati - ta'lim sifati, bolalar tarbiyasi samaradorligi hamda tashkilotdagi ijtimoiy muhit barqarorligining muhim omilidir. Tarbiyachi o'z vazifasini faqat kasb yoki majburiyat sifatida emas, balki ijtimoiy-mas'uliyatli, shaxslararo muloqotni talab qiluvchi, ijtimoiy-psixologik jihatdan murakkab faoliyat sifatida qabul qilishi lozim. Chunki bolalar bilan ishlashda mehr, sabr-toqat, pedagogik sezgirlik, ijtimoiy motivatsiya va psixologik barqarorlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga munosabati bir qator psixologik omillar bilan izohlanadi. Bular qatoriga shaxsiy motivatsiya, kasbiy qadriyatlar tizimi, jamoada o'zaro munosabatlar, rahbariyatning qo'llab-quvvatlashi, ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya etilishi va psixologik iqlim kiradi. O'zbekiston sharoitida esa, ushbu omillar bilan bir qatorda milliy qadriyatlar, oila va mahalla institutining ta'siri ham tarbiyachining kasbiy faoliyatida muhim rol o'ynaydi.

Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarida faoliyatiga munosabatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Bu, bir tomondan, tarbiyachilar faoliyatini ilmiy asosda samarali tashkil etish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, bolalar ta'lim-tarbiyasining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga munosabatini shakllantirish masalalari ko'pgina fanlararo tadqiqotlarning predmeti sifatida keng o'rganilmoqda. Xorijiy, MDH mamlakatlari va O'zbekiston olimlarining ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilarning vazifasiga munosabatini shakllantirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, uni ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan kompleks o'rganish zarurati hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda. Xorijiy adabiyotlarda tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga munosabati, ularning ish motivatsiyasi, kasbiy qoniqishi va psixologik barqarorligi masalalari keng yoritilgan. Jumladan, A. Macloy, D. Boyatzis, J. Raven, P. David, J. Moorman, V.Hutmacher singari olimlarning izlanishlarida inson motivatsiyasi, kasbiy qadriyatlar tizimi, ijtimoiy-psixologik muhit va shaxsning kasbiy rivojlanishiga oid nazariyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, C.J.Trivette, H.T.Sulyman, G.Lassuel, U.Shramm, G.Gerbner, M.Maklyuen kabi tadqiqotchilarning ishlari pedagogik jarayonda kommunikatsiya, ta'sirchanlik va shaxslararo muloqotning ahamiyatini yoritib bergan. Ushbu izlanishlarda tarbiyachining o'z vazifasiga munosabati, uning ijtimoiy-psixologik sharoitlar bilan bevosita bog'liqligi ilmiy asoslab berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan K.L.Ulanova, A.S.Makarenko, N.A.Menchinskaya, D.V.Elkonin, O.Gazman, E.Zeer, M.Pevzner, E.Kazakova, Yu.Yu.Petrinin, A.E.Pugachyova, V.M.Matiashvili va boshqalar o'z tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy faoliyatini tashkil etish, ularning kasbiy mas'uliyatini oshirish, shuningdek, ta'lim standartlari sharoitida pedagoglarning o'z kasbiga munosabatini shakllantirish muammolarini o'rgangan. Jumladan, L.V.Baeva, L.L.Gurova, Ya.A.Ponomarev va K.V.Borchaninova ishlarida tarbiyachilarda kasbiy stressni bartaraf etish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va motivatsiya tizimlarini takomillashtirish masalalari ko'tarilgan. Bu tadqiqotlarda tarbiyachining kasbiy vazifaga munosabati nafaqat shaxsiy xususiyatlar, balki ijtimoiy-psixologik muhit bilan ham belgilanadi, degan xulosa ilgari surilgan.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy omillaridan biri sifatida ijtimoiy-psixologik kompetentlik masalasi keng tadqiq etilmoqda. Kasbiy kompetentsiya tushunchasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng qo'llaniladi va u shaxsning o'z kasbiy faoliyatini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlar majmuasi sifatida tushuniladi. Kasbiy kompetentsiya – bu tarbiyachining kasbiy vazifalarni sifatli va samarali bajarish qobiliyatini belgilovchi bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning uyg'un majmuasidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarida vazifaga munosabatni shakllantirishda ijtimoiy-psixologik kompetentlik asosiy rol o'ynaydi. Ijtimoiy-

psixologik kompetentlik – bu shaxsning ijtimoiy va psixologik omillarni hisobga olgan holda kasbiy faoliyatni samarali bajarish qobiliyati bo'lib, u tarbiyachining pedagogik jarayonni tashkil etish, bolalar va hamkasblar bilan muloqot qilish, shuningdek, stressga chidamlilik va moslashuvchanlik ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Empatiya va kommunikativ ko'nikmalar – tarbiyachi bolalarning psixologik holatini tushunish, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Jamoaviy ishlash qobiliyati – pedagoglar pedagogik jarayonni jamoa bilan uyg'un tashkil etish, hamkorlik va ijtimoiy intizomni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Stressga chidamlilik va psixologik barqarorlik – kasbiy faoliyat davomida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarda emotsional barqarorlikni saqlash, vazifaga mas'uliyatni yo'qotmaslik.

Kasbiy kompetentsiya tushunchasi esa, ijtimoiy-psixologik kompetentlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tarbiyachining kasbiy bilimlari, ko'nikmalari, malakasi va shaxsiy sifatlari majmuasini ifodalaydi. Ularga pedagogik bilimlar, bola psixologiyasi, ta'lim metodikasi, darsni rejalashtirish va tashkil etish, pedagogik ko'nikmalariga esa innovatsion metodlarni qo'llash, pedagogik muammolarni hal qilish, interaktiv va loyiha asosidagi yondashuvlar va shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlariga mas'uliyat, ijodiy yondashuv, empatiya, kommunikativ qobiliyat va stressga chidamlilik xususiyatlari shakllanmog'i zarur.

Tarbiyachilarning kasbiy vazifaga munosabati ta'lim sifati, bolalar tarbiyasining samaradorligi hamda ijtimoiy muhit barqarorligining asosiy omili hisoblanadi. Shuning uchun ularning kasbiy kompetensiyasini oshirish, ijtimoiy-psixologik kompetentligini shakllantirish, motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash va stressga chidamliligini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida e'tirof etiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachining kasbiy faoliyatga munosabati shaxsiy xususiyatlar bilan birga ijtimoiy-psixologik muhit, jamoa bilan o'zaro munosabatlar va rahbariyatning qo'llab-quvvatlashi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish nafaqat ularning samarali faoliyatini ta'minlaydi, balki bolalar ta'lim-tarbiyasining sifati oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni //O'RQ-637-son 23.09.2020.
2. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni (2019-yil 16-dekabr).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3305-son qarori.
4. 2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi.
5. Петрунин, Ю. Ю., Пугачёва, А. Е. (2021). Инновационные подходы в системе дошкольного образования. Москва.